



“SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING XORIJDA O‘RGANILISHIGA DOIR

Yoqubova Muhayyo Nasibjon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207385>

Annotatsiya: ushbu maqolada hazrat Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonining xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi darajasi, ularning mazkur dostonga nisbatan munosabatlari haqida so‘z yuritiladi. Xorij tadqiqotchilari asarning qaysi jihatlariga e’tibor qaratgani haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy ijodi, “Xamsa” dostonlari, navoiyshunoslik, “Sab’ai sayyor”, Bahrom Go‘r, mumtoz adabiyot, ilmiy asarlar, maqola.

Ulug‘ zotlar yaratgan asarlar hamisha inson hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy ham ana shunday buyuk asarlari bilan har doim ilm ahlining qalbidan o‘rin egallab kelmoqda. Asarlari tarbiyaviy ahamiyatga boyligi, kundalik hayotimizda foydasi tegadigan pand-nasihatlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga do‘stlik, adolat, rostgo‘ylik, insonparvarlik hamda chin sevgi kabi insoniy xislatlar Navoiy asarlarida mukammal va hayotiy dalillar bilan o‘quvchilar ongiga singadi.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni — “Sab’ai sayyor” bo‘lib, mavzu yo‘nalishiga ko‘ra ishqiy-sarguzasht asar hisoblanadi. Shoir “Sab’ai sayyor” uchun Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan —Bahrom Go‘r hikoyasini asos qilib olgan. Bu afsona sosoniylar sulolasidan bo‘lgan podshoh Varaxran V (420–438) nomi bilan bog‘liq. U go‘r – qulon oviga o‘ch bo‘lgani uchun Bahrom Go‘r nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu haqida Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” asarida: —Va ani Bahrom Go‘r dedilar. Muning jihatini ba’zi dedilarkim, to‘rni sher sayd qilg‘anda, aning o‘qi ikisidin o‘tub, yerga tegdi. Ba’zi debdurlarkim, go‘r ovig‘a ko‘p moyil erdi, – deb ta’riflaydi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga qiziqish uning tiriklik paytidanoq boshlangan edi. U yaratgan asarlar ilgaridan qardosh tillarga tarjima qilinib kelingan.

Keyinchalik, Navoiy ijodini o‘rganish XX asrlarda keng rivojlanib, navoiyshunoslik fani yuzaga keldi. Uning yaratgan asarlari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borish rivojlanib, ko‘plab asarlar, monografiyalar yaratildi. Shu jumladan, Yevropada ham bunday ishlar samarali tashkil etildi. Xususan, mashhur sharqshunos olim Y. Bertels, M.Sale, A.Deych, rus olimi va tarjimoni S.Lipkin, kavkazshunos



olim B.T. Rudenko, gruzin adabiyotshunosi K.S.Kekelize, ozarbayjonlik olimi J. Nagiyeva va ko‘plab tadqiqotchilar tomonida o‘rganilgan.

Sharqshunos olim Yevgeniy Bertels (1890–1957) turkiy va fors adabiyotining mashhur asarlarini o‘rgangan va ularga ilmiy baho bergan olimlardan biridir. U, ayniqsa, Alisher Navoiy, Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi mashhur adabiyot namoyandalari ijodini chuqur tahlil qilgan.

Shuningdek, Y. Bertels “Xamsa” dostonlaridagi “Sab’ai sayyor” dostonlarini o‘rganib chiqib ular orasida o‘xshash va farqli jihatlariga alohida diqqatini qaratadi. Ayniqsa, dostonlarning nomi astronomik tushunchalarga asoslangan bo‘lib, u yettita sayyora va ularning ta’siri haqidagi falsafiy qarashlarni ham o‘z ichiga olganligi haqida ta’kidlaydi. “Sab’ai sayyor” dostonlaridagi astronomik bilimlarga alohida to‘xtalib, ularning ma’no va mazmuni haqida fikr yuritadi.

E. Bertels Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini sharq mumtoz adabiyoti mazmun jihatdan o‘rganib, undagi tasavvufiy, tarixiy va falsafiy ma’nolarni tahlil qilgan. U Navoiyning badiiy uslubi, ramzlari va obrazlari haqida chuqur tadqiqot olib borgan. Masalan, u asosiy ixtisosligi bo‘yicha fors adabiyoti mutaxassisi bo‘lishiga qaramay bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini zarracha bo‘lsa-da yo‘qotmagan “Navoiy va Attor” maqolasida (1928) ikki tilda yozilgan asarni chog‘ishtirib Alisher Navoiyning jahon adabiyoti tarixida kam uchraydigan original shoir ekanligini rad etib bo‘lmas dalillar bilan isbotlab ko‘rsatdi. Bundan tashqari, maqolada buyuk shoirning adabiy an’anaga hamda tasavvufga munosabati aniq belgilangan.

E.Bertels sobiq ittifoq davrida Sharq adabiyotining yirik vakillari Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy tavallud sanalarini keng ko‘lamda nishonlash ishlarida faol ishtirok etdi, ko‘plab maqolalari bilan matbuotda muntazam qatnashdi, monografiyalar chop ettirdi. Uning rahbarligi ostida “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga kirishildi hamda ayrim dostonlarning tanqidiy matni nashr ham etildi. U Sharq matnshunoslik ilmining yangi davrdagi ilmiy nazariyasiga asos soldi va uni amaliyotda qo‘lladi ham. Ayni ishlar uchun olim o‘z davrida davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

M. Sale “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlar haqida ilmiy ish yozgan. U o‘z tadqiqotining boshlanish qismida dostonlarning mazmuni haqida yozadi, keyin Nizomiy va Alisher Navoiy asarlarini qiyoslab, ulardagi muhim farqli jihatlarni ko‘rsatib o‘tadi. “Sabbayi sayyor”ga o‘ziga xos yo‘nalishga ega bo‘lgan adabiy obida deb qaraydi. M. Sale “O‘zbek adabiyoti tarixidan ocherklar” nomli maqolasida ushbu mavzuning kam o‘rganilganligi va “Sab’ai sayyor” dostonini hozirgi



adabiyotshunoslik fanining eng oxirgi yutuqlari asosida chuqur ilmiy ravishda o‘rganish, uning adabiyot tarixida tutgan o‘rnini aniqlash lozimligiga e‘tiborini qaratdi. Bu masalani diqqat bilan o‘rganish deb ta’kidlaydi, Sale Alisher Navoiyning estetik qarashlaridagi muhim va hali bizga noma’lum bo‘lib kelgan tomonlarini ham yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi.

Ushbu doston tarjimai bilan shug‘ullangan yana bir rus tarjimoni S. Lipkin asar so‘zboshisida ushbu dostonning kelib chiqishi, dostonning mulohazalarga boyligi haqida, uning qadimiy afsonalarga ham aloqador ekanligi haqida yozib o‘tadi.

Y.E.Braginskiy esa, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” va Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin” asari an’analarning davomiga yaqin degan xulosaga keladi.

L.Klimovich “Alisher Navoiy va uning “Sabbayi sayyor” dostoni” maqolasida poemaning qisqacha mazmuni, o‘zidan avval yaratilgan “Xamsa”lardan farqi va g‘arb adabiyotida ushbu asar asosida yaratilgan asarlar xususida fikr yuritadi.

Mashhur kazkazshunos olim B.T.Rudenko “Sab’ai sayyor” dostonining syujeti va kompozitsion tuzilishida Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” dostonlaridagi o‘xshash jihatlar borligini aniqlaydi.

Xususan, Alisher Navoiy ijodini turkiyalik olimlar N.S.Banarli, F.Ko‘prulu, Kamol Eraslan, qo‘lyozmalarini To‘pqopi Revan, Ogoh Sirri Levend kabi mashhur olimlar va qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi.

Xususan, Alisher Navoiy tavvalludining 525 yilligi munosabati bilan Istanbulda Navoiyning bir qator asarlari nashr etildi. Shu jumladan, navoiyshunos olim, Ogoh Sirri Levend 4 tomlik asarini nashrdan chiqardi. Keyingi yillarda “Alisher Navoiy” nomli risolasi ham chop etilib, kitobxonlarga taqdim etildi. Bu risolada Navoiyning hayoti va ijodi va bir qator bo‘limlar o‘rin olgan. Jumladan, ““Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarning o‘zidan oldin yozilgan beshlik dostonlari bilan qiyosiy tahlili” va “Navoiy devonlari va “Xamsa” asaridan boshqa yozgan asarlari” bo‘limlarida “Sab’ai sayyor” dostoniga ham alohida to‘xtalib o‘tadi.

Kekelidze “Alisher Navoiy gruzin adabiyotida” maqolasi 1930-yilda nashr etildi va unda gruzin shoiri Nodar Sisishvilining “Bahram Guriani” asarini tahlil qilinadi. Va Kekelidzening fikricha, shoirni Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy va Xotifiylarning asarlari asosida yaratilgan deb aytadi. Lekin bular asosida eng ko‘p Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni muhim ahamiyat aks etishini alohida ta’kidlaydi. Va ushbu maqolasida Nodar Sisishvili “Navoiydek yana bir ulug‘ ijodkorni tasavvur qilish qiyin, deb yuksak baho bergan edi”, – deydi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Navoiyning “Sab’ai sayyor” asari asosida italiyalik Maykl Tramezzino tomonidan 1557-yilda yaratilgan va dunyoning bir necha tillariga qayta-qayta tarjima qilingan “Sarandipning uch shahzodasi” asarini tadqiq qilgan amerikalik sharqshunos Richard Boyl bu asarni Yevropa Uyg‘onish davrining shoh asari deb ataydi.

Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni Ozarbayjon adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu asar Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy kabi shoirlarning “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) va “Hasht bihisht” (“Sakkiz Jannat”) dostonlari an’anasini davom ettiradi. Navoiy ushbu mavzuni o‘ziga xos tarzda talqin qilib, asarga yangi mazmun va shakl bergan. Bu esa Ozarbayjon adabiyotida “Sab’ai sayyor” syujeti asosida yaratilgan asarlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Masalan, “Bahrom va Gulandom” kabi asarlar Navoiy dostonining ta’siri ostida yozilgan. Shuningdek, “Sab’ai sayyor” syujeti Ozarbayjon xalq og‘zaki ijodida ham o‘z aksini topgan. Bu asarlarning barchasi Navoiy ijodining Ozarbayjon adabiyotiga chuqur ta’sirini ko‘rsatadi. Shu kabi adabiyotshunosligimiz uchun muhim ma’lumotlar ozarbayjonlik olimi J.Nagiyeva “Adabiy meros” to‘plamidan o‘rin olgan “Alisher Navoiy va XXI asr adabiyoti” maqolasida Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonining ozarbayjon adiblari ijodiga ta’siri masalalarini yoritib bergan.

Afg‘onistonda Navoiy haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar barmoq bilan sanarli desak, mubolag‘a emas. Chunki afg‘on maktablarida o‘zbek tili hozirgacha o‘tilmaydi. Bu tilga qiziqqanlar uni mustaqil o‘rganishga harakat qiladilar. Bizda keyingi 20 yil jarayonida bir qator davlat bilim yurtlarida o‘zbek tili bo‘limlari ta’sis etilib, bu tilni qiziqib o‘rganadiganlar soni oshib bormoqda. Ana shu uchun bo‘lsa kerak Navoiy asarlarini nashrga berib, bosib chiqarish keyingi yillarda sezilarli darajada yaxshilanganligiga shohid bo‘lib turibmiz. Navoiy asarlarini xalqqa yetkazish uchun bundan chamasi 40 yil oldin (1981 – 1991-yillar orasi) “Dahayi tahqiqi Navoiy” (Navoiyni o‘rganishga o‘n yil) deb Afg‘oniston hukumati tomonidan targ‘ib qilingan edi. Bu yillarda Afg‘oniston bilimlar akademiyasi tomonidan “Xamsa” (Toshkent toshbosmasi asosida G‘affor Bayoniy tomonidan), “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, va Barto‘ldning “Zindagoni siyosi Navoiy” nomli asarlariforschaga tarjima qilinib, xalqqa yetkazish uchun chop qilingan edi. Aynan shu yilda “Makorim ul-axloq” G‘affor Bayoniy tomonidan nashrga berilgan edi. Tojik adabiyotshunoslari A. Afsahzod, U. Karimov, V. Samad, Xudoydodovlar o‘zbek-tojik adabiy aloqalari tarixini chuqur o‘rgandi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning asarlarini batafsil o‘rganishdi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Navoiy asarlarini o‘rganish chuqur bilim, yuksak tafakkur va metindek ilmiy salohiyat talab etadi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham botiniy bilim, haqiqiy ishdan xabardor ekanligi, mumtoz adabiyotni anglash va unga nisbatan hurmat, Navoiy asarlariga alohida e‘tiborni ko‘rish mumkin. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat Sharq adabiyotida, balki, G‘arb adabiyotida ham Navoiyga chuqur hurmat, asarlarini sevib o‘qish va tahlil qilish, muayyan millat vakillari uchun tushunarli holga keltirish avvaldan mavjud bo‘lgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, “Sab’ai sayyor” dostonida ko‘plab mushohada qilishga undaydigan qirralarning nafaqat, turkey xalqlar, balki, yevropaliklar tomonidan ham aniqlanayotgani, bugungi kunda ham o‘rganilish darajasi yana-da takomillashib borayotgani, asarning tub mohiyatidagi bilimlarni aniqlashga harakat tobora rivojlanib bormoqda. Dostondagi hikoyatlar orqali Navoiy nima demoqchi ekanligi, har bir rangning anglatgan ramziy ma’nolari, qolaversa, undagi astronomik bilimlarni aniqlashga, tushunishga bo‘lgan xohish bot-bot asarni tahlil qilishga chorlaydi. Aytib o‘tish joizki, ushbu buyuk siymoning asarlari inson tafakkurini biroz junbushga keltirish bilan birga, odamizod ong-u shuurini mushohada qilishga undaydi. Ma’naviyat va ma’rifat xazinasini boyitish uchun muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. –B. 55.
2. Abdulaziz Muhammadkarimov. Toshkentnoma. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. –B. 184.
3. Алишер Навоий. Тарихи мулуки аҷам. МАТ. 20 томлик. 16 том. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 232.
4. Nuriy Y. Navoiyning Afg‘onistonda o‘rganilishi va asarlarining nashr etilishi. Alisher Navoiy va XXI asr. Ilmiy ishlar to‘p. Toshkent. 2002.-B. 101.
5. Xasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. B. 190.